

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

SEILBEKOV RUSLAN BAXITOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIGA MOS BEHI (*Cydonia oblonga Mill*)
NAVLARINI TANLASH VA KO‘CHATLARINI YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on agricultural sciences**

Seilbekov Ruslan Baxitovich

Qoraqalpog‘iston sharoitiga mos behi (*Cydonia Oblonga Mill*) navlarini tanlash va ko‘chatlarini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish 3

Сеилбеков Руслан Бахитович

Отбор сорта айвы (*Cydonia Oblonga Mill*) подходящей для условий Каракалпакстана и совершенствование технологии выращивания саженцев 19

Seilbekov Ruslan Bakhitovich

Selection of varieties of quince (*Cydonia Oblonga Mill*) suitable for the conditions of Karakalpakstan and improving the technology of growing seedlings 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

SEILBEKOV RUSLAN BAXITOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIGA MOS BEHI (*Cydonia oblonga Mill*)
NAVLARINI TANLASH VA KO‘CHATLARINI YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx665-raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islamov Soxib Yaxshibekovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Fayziyev Jamoliddin Nosirovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Jurayev Erkin Baxtiyorovich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 18 dekabr soat 16⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.:(+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№551950-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 6 dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 4 dekabrda №49-raqamli reyestr bayonnomasi).


Sh.I. Asatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor


M.Z. Xolmurotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent


S.A. Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Behi (*Cydonia oblonga Mill*) – butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan urug‘ mevali ekinlardan hisoblanadi. FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, “dunyoda 1050 ming tonna behi ishlab chiqarishda birinchi o‘nlikda (tonna va hissasi) Turkiya (190,01 ming t. va 27,53 %), Xitoy (111,38 ming t. va 15,97 %), O‘zbekiston (97,54 ming t. va 13,98 %), Eron (90,56 ming t. va 12,98%), Marokko (54,64 ming t. va 7,83 %), Ozarbayjon (42,07 ming t. va 4,13 %), Argentina (28,81 ming t. va 4,13 %) va Serbiya (10,43 ming t. va 1,49 %) davlatlari hisoblanadi”¹. O‘zbekistonda 2020-yilda behi yetishtiriladigan umumiy maydoni 6266 gektar va yalpi hosil 96 243 tonna bo‘lib, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasida yalpi hosil 1 494 tonna va hosildorlik 86,4 s/ga ni tashkil qilgan.

Dunyoda behi navlari assortimentini kengaytirishda shuningdek, oziq-ovqat hamda qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bilan ta‘minlashda Turkiya, Xitoy, Eron va Argentinada sanoatbop past bo‘yli, Serbiya, Marokko va Eronda yirik mevali, Rossiya, Gruziya, Ozarbayjonda sovuqqa chidamli va serhosil navlarini yaratish, shuningdek, meva va ko‘chatlarini yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda sanoat va aholining behiga bo‘lgan talablarini to‘la qondirishga strategik yondashib, bir qator rejalar, jumladan, yangi behizorlar barpo qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, intensiv texnologiyalar asosida behizorlar maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirishda agrotexnikaga alohida e‘tibor qaratish lozim. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazishda, ayniqsa, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini meva-sabzavot bo‘yicha 28 foizga yetkazish”²ga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu borada, O‘zbekistonda behi navlarining assortimentini kengaytirish, yuqori mahsuldor navlarni tanlash va ularning ko‘chatlarini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni, 2024-yil 30-sentabrdagi PF-151-son “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni, 2023-yil 05-apreldagi PQ-113-son “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, shuningdek, bu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ FAOSTAT Statistics Database. FAO, Rome, Italy. <http://www.fao.org>.

² <https://lex.uz/uz/pdfs/5841077>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishi-ning asosiy ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi bo‘yicha belgilab olingan maqsad va vazifalari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Behi navlarini yaratish va morfo-biologik va qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganishda M.Adler, T.Angelov (Germaniya), W.R.Autio, E.W.Southnick (AQSH), O.N.Borisova, L.CH.Gagloyeva, A.A.Ilyashenko, A.K.Kalbayeva, A.Y.Lobachev, N.V.Mojar, A.N.Polyakov, G.D.Yusupov (Rossiya), A.V.Kanametova (Ozarbayjon), D.S.Sharashenidze (Gruziya), behi payvandtaglarini tanlash va ko‘chatlarini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishda Z.M.Asadulayev, G.D.Yusupov, J.X.Bakuev, A.B.Kanametova, I.A.Bandurko, I.N.Dyakova (Rossiya)lar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida behining yangi navlari yaratilgan.

O‘zbekistonda behining mahalliy navlarini yaratishda A.N. Leyn, A.K. Pavlov va U.M. Mirzohidov, navlarni tanlash va ularni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar V.V. Kuznetsov, A.K. Kalbayeva hamda behi payvandtaglarni o‘rganish yuzasidan A.A. Mahmudov, I.T. Normuratovlar tomonidan tadqiqotlar bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda oxirgi 30 yilda behi navlarini tanlash va ko‘chat yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan. Shu munosabat bilan ushbu dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb hisoblandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Mevachilik, sabzavotchilik va polizchilik kafedrasining 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan №3 “Qoraqalpog‘iston Respublikasi tuproq-iqlim sharoitida meva-sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirishning resurstejamkor texnologiyalarini ilmiy asoslash” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi behi navlarining xo‘jalik-biologik xususiyatlarini o‘rganish, istiqbolli navlarni tanlash hamda standart ko‘chat tayyorlashda maqbul payvandtag tipi va payvandlash muddatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

behi navlarining agrobiologik xususiyatlarini o‘rganish asosida istiqbolli navlarni tanlash;

yuqori hosildor behi navlarini ajratish;

standart behi ko‘chatlarini yetishtirishda maqbul payvandtag tiplarini belgilash;

kurtak payvandlash usulida behi ko‘chatlarini yetishtirishda maqbul payvandlash muddatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida behining O‘zbekistonda rayonlash-tirilgan “Samarkandskaya krupnoplodnaya” (st), “Aromatnaya”, “Izobelnaya”, “Mushk bexi”, “Savxoznaya”, “Krimskaya aromatnaya”, “Otlichnitsa”, introduksiya qilingan “Anjerskaya”, “Grushavidnaya”, “Zakatolskaya”, “Konservnaya”, “Micha urojaynaya”, “Nagibrin”, “Tursh Buxarskaya”, “Yablokovidnaya” hamda xalq

seleksiyaga mansub “Xorazm noksimon behisi”, “Non behi”, “Nordon” navlarining daraxtlari, mevasi va hosildorligi, shuningdek, yovvoyi behi (nazorat), Ayva “A” (Anjerskaya), BA-29, Quince C, Quince A, Alushtinskaya, R3, Xerson, S-A va R1 tipidagi payvandtaglarda yetishtirilgan ko‘chatlar xizmat qilgan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib kurtak usulida payvandustni payvandtagga payvandlash muddatlarida (30 iyul, 10 avgust, 20 avgust va 30 avgust) yetishtirilgan 2-yoshli ko‘chatlarini o‘sishi dinamikasi, ildiz tizimi hamda standart ko‘chatlarni chiqish ko‘rsatkichlari hisoblandi.

Tadqiqot usullari. Dala tajribalari “Programma i metodika sortoizucheniya plodovix, yagodnix i orexoplodnix kultur” (Sedova YE.N., Ogolsov T.P., 1999), “Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi” (Buriyev X.CH., va boshqa., 2014), biokimyoviy tahlillarni aniqlashda “Metodi bioximicheskogo issledovaniya rasteniy” (Yermakova A.I. va boshqa., 1987), navlarning ko‘chatlarini va bir yillik novdalarini o‘sish dinamikasini aniqlashda (Vitkovskiy V.L., 2003), ildiz tizimi o‘rganishda (Kolesnikov V.A., 1972) kabi uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi, tadqiqot natijalarining statistik tahlili «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturida, 0,95% ishonchlik oralig‘i bilan «Metodika polevogo opita» (Dospexov B.A., 1985) dispersion usuli bo‘yicha hisoblandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida behini 18 ta navlaridan yuqori agrobiologik xususiyatiga ega “Non behi”, “Xorazm noksimon behisi” va “Yablokovidnaya” navlari tanlangan;

behidan yuqori hosil olishda “Xorazm noksimon behisi” (208,1 s/ga), “Savxoznaya” (207,6 s/ga) va “Non behi” (207,4 s/ga) navlaridan foydalanish ilmiy tavsiya berilgan;

maydon birligidan Quince C (66,9 ming dona), Quince A (66,3 ming dona) va BA-29 (65,2 ming dona) payvandtaglarida yuqori standart ko‘chat chiqishi aniqlangan;

eng baland bo‘yli behi ko‘chati kurtak usulida payvandlashda 10 avgust muddatida (104,8 sm) shakllangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida behi plantatsiyalarini barpo qilishga “Xorazm noksimon behisi” (208,1 s/ga), “Savxoznaya” (207,6 s/ga) va “Non behi” (207,4 s/ga) navlari tanlangan;

standart ko‘chat chiqishi maydon birligidan Quince C (66,9 ming dona), Quince A (66,3 ming dona) va BA-29 (65,2 ming dona) payvandtaglariga payvandustlari ulash natijasida erishilgan;

kurtak payvandlash usulida 10 avgust muddatida maydon birligidan 18,2 va 9,6 ming dona I va II navli standart behi ko‘chatlari yetishtirilgan;

eng yuqori sof daromad va rentabellik behining Non behi (66,1 mln. so‘m va 228,9 %), Xorazm noksimon behisi (55,0 mln. so‘m va 195,2 %), Sovxoznaya (54,9 mln. so‘m va 194,6 %), Otlichnitsa (50,2 mln. so‘m va 179,8 %), Yablokovidnaya (49,3 mln. so‘m va 176,9 %) navlarida, shuningdek, BA-29, Quince C va Quince A tipidagi payvadtaglarida yetishtirilganda eng yuqori sof daromad (mos ravishda:

513,6; 529,2 va 523,5 mln. so‘m) va rentabellik (370,6; 381,8 va 377,8 %) olish imkoniyati mavjudligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dala tajribalari mutaxassislar tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilib baholanganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelganligi, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, kuzatilgan qonuniyatlar va olingan hulosalarning mosligi, tajriba natijalari halqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muxokama qilinganligi hamda mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida sanoat plantatsiyalariga serhosil behining navlarini tanlanganligi hamda ko‘chatlarni tayyorlashda maqbul payvandtag tipi va payvandlash muddatlarida o‘simliklarni o‘sish va rivojlanish bosqichlarini o‘tishi o‘rganilganligi, behi navlarining muhim qimmatli xo‘jalik belgilari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shimoliy hududlarda sanoat plantatsiyalariga serhosil behi navlari tanlanganligi, ko‘chat yetishtirishda maqbul payvandtag tiplari va payvandlash muddatlari aniqlanganligi hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligi va fermer xo‘jaliklarda joriy etilganligini bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Behi navlarining xo‘jalik-biologik xususiyatlarini o‘rganish hamda ko‘chat yetishtirishda payvadtag tiplari va payvandlash muddatlarning ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar natijasida:

tanlab olingan behining serhosil “Non behi”, “Xorazm noksimon behisi” va “Yablokovidnaya” navlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi “Amu-anorlari” MCHJning 1 gektar, Kegeyli tumanidagi “Sultanbek bag‘man” fermer xo‘jaligining 1 gektar, Xojeli tumanidagi “Zulfiya Tadbirkor Ayol” fermer xo‘jaligining 1 gektar, jami 3 gektar maydonda joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 16 apreldagi 03/03-1513-son ma’lumotnomasi). Natijada behining “Non behi” (237,3 s/ga), “Xorazm noksimon behisi” (208,1 s/ga), “Sovxoznaya” (207,6 s/ga), “Aromatnaya” (199,1 s/ga), “Otlichnitsa” (195,2 s/ga) va “Yablokovidnaya” (192,8 s/ga) navlarida bo‘lib, behining “Non behi” navidan – 52,4 mln. so‘m, “Xorazm noksimon behisi” navidan – 45,6 mln. so‘m hamda “Yablokovidnaya” navidan – 41,3 mln. ming so‘m yuqori daromad olish mumkinligi ilmiy asoslangan. Bu esa maydon birligidan behining “Non behi”, “Xorazm noksimon behisi” va “Yablokovidnaya” navlaridan 54-25% samaradorlikka erishilgan;

behi ko‘chatlarini yetishtirishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi “Gulziya” hamda Nukus tumanidagi “Aygira Zarafshan” fermer xo‘jaliklarining jami 2 gektar maydonida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 16 apreldagi 03/03-1513-son ma’lumotnomasi). Natijada, behi ko‘chatini “Quince C”, “Quince A” va “BA-29” payvandtaglari qalamchalarini 70×20 sm ekish sxemasida payvandustni 20 iyuldan 10 avgustgacha payvandlashda “Yovvoyi behi” urug‘idan ko‘paytirilganga nisbatan 42,3-40,1 foizga yuqori standart ko‘chatlar olinganligi hamda “BA-29” payvandtagda

– 541,8 mln. so‘m, “Quince C” payvandtagda – 557,5 mln. so‘m va “Quince A” payvandtagda – 551,8 mln. so‘m foyda ko‘rilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta, xalqaro konferensiyalarda 3 ta va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida 3 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning xajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, tadqiqotning obekti va predmeti keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ularni joriy etish, aprobatsiya va ish natijalarining chop etilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar, dissertatsiyaning hajmi va qisqacha tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Behining (*Cydonia oblonga* Mill) ahamiyati, morfobiologik xususiyatlari va ko‘chat yetishtirish texnologiyasini o‘rganilganligi (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorij va respublikamiz olimlarining ushbu mavzuda olib borgan ilmiy tadqiqotlari va adabiy manbalari sharhlangan. Jumladan, behining tarqalish tarixi va qimmatli xo‘jalik belgilari, behining botanik va morfobiologik xususiyatlari, behini yetishtiriladigan navlari va ko‘chatchiligi bo‘yicha adabiyotlar ma‘lumotlari tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish joyi sharoiti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot mavzusi yuzasidan dala tajribalari olib borilgan joyning tuproq-iqlim sharoiti, tadqiqot maqsadi, obekti hamda tajribalarni o‘tkazish uslublari tavsiflangan. Xususan, ushbu bobning **“Tadqiqot o‘tkazish uslubi”** bo‘limida ishlab chiqilgan mavzuning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obektlari, dala tajribalari va laboratoriya tahlillarini olib borish uslublari, dala tajribalarida behi nav namunalarining xo‘jalik-biologik xususiyatlari asosida istiqbolli navlarni tanlash, shuningdek, behi ko‘chatlarini yetishtirishda maqbul payvandtaglarni tanlash hamda behi ko‘chatlarini vegetativ ko‘paytirish muddatlarini aniqlashda qo‘llanilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik hisoblar, shuningdek tajriba ma‘lumotlariga matematik ishlov berish tartiblari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Behi navlarining agrobiologik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobining **“Behi navlarining o‘sib-rivojlanish fazalari”** deb

nomlangan paragrafida behining Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) navida (28/III) nisbatan Savxoznaya (25/III), Anjerskaya, Zakatolskaya, Mushk bexi, Nagibrin va Otlichnitsa (26/III), Non behi va Nordon navlarida (27/III) 1-3 kun oldinroq, aksincha Grushavidnaya va Izobelnaya (29/III), Konservnaya, Micha urojaynaya va Tursh Buxarskaya (30/III) navlarida 1-2 kun kechroq kurtaklar yozilishi kuzatildi.

Behi navlarida gullash jarayoni havo harorati $17,2^{\circ}\text{C}$ bo'lganda aprel oyining 1- va 2-dekadalarida otalik va onalik gullarni shakllanishi va tugashi barcha navlar (05-16/IV) kuzatilgan bo'lib, bunda havo harorat yig'indisi $209,4^{\circ}\text{C}$ tashkil qilib, gullashdan (05/IV) to mevalarining pishishini boshlanguncha Nordon, Otlichnitsa, Nagibrin va Tursh Buxarskaya navlarida (10/VIII) – $+342,7^{\circ}\text{C}$, Grushavidnaya, Zakatolskaya, Izobelnaya, Krimskaya aromatnaya, Micha urojaynaya, Nagibrin, Savxoznaya Non behi va Tursh Buxarskaya navlarida (11-20/VIII) – $+370,7^{\circ}\text{C}$, Samarkandskaya krupnoplodnaya (st), Anjerskaya, Aromatnaya, Konservnaya, Mushk bexi va Krimskaya aromatnaya navlarida (21-29/VIII) – $+396,5^{\circ}\text{C}$ faol foydali haroratni talab qildi.

Behi navlari mevalarning pishishini boshlanishidan to tugashishigacha Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) navida – $+90,2^{\circ}\text{C}$ faol foydali harorat 27 kunda talab qilgan bo'lsa, unga nisbatan kamroq faol foydali harorat Aromatnaya ($+71,3^{\circ}\text{C}$, 28 kun) va Tursh Buxarskaya ($+78,4^{\circ}\text{C}$, 36 kun) navlarida ekanligi aniqlandi. Behining Anjerskaya, Konservnaya va Mushk bexi navlaridagi faol foydali harorat ($+90,2^{\circ}\text{C}$) standart Samarkandskaya krupnoplodnaya navi bilan bir xil bo'lgan bo'lsa, aksincha, Grushavidnaya, Zakatolskaya, Izobelnaya, Micha urojaynaya, Non behi va Nordon ($+99,2^{\circ}\text{C}$) navlarida $+9^{\circ}\text{C}$, Otlichnitsa va Savxoznaya ($+118,2^{\circ}\text{C}$) navlarida $+28^{\circ}\text{C}$, Nagibrin ($+127,9^{\circ}\text{C}$) navida $+37,7^{\circ}\text{C}$ hamda Krimskaya aromatnaya ($+131,1^{\circ}\text{C}$) navida eng ko'p $+40,9^{\circ}\text{C}$ faol foydali haroratda bo'lishi aniqlandi.

Behining Aromatnaya, Izobelnaya, Konservnaya va Otlichnitsa navlarida sentabr oyining 2-dekadasida (10-18/IX), Samarkandskaya krupnoplodnaya (st), Anjerskaya, Zakatolskaya, Micha urojaynaya, Nagibrin, Non behi va Nordon navlarida sentabr oyining 3-dekadasida (20-29/IX), Mushk bexi va Tursh Buxarskaya navlarida oktabr oyining 1-dekadasida (8-10/X), Savxoznaya, Grushavidnaya va Krimskaya aromatnaya navlarida oktabr oyining 2-dekadasida (15-20/X) barglarni to'kilishi (xazonrezgilik) boshlanib, faol foydali harorat (mutanosib ravishda) $+310,8^{\circ}\text{C}$, $+331,7^{\circ}\text{C}$, $+350,6^{\circ}\text{C}$, $+363,6^{\circ}\text{C}$ va $+376,3^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qildi.

Behi navlarini kurtak yozilishidan to vegetatsiya davrini tugashishi Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga (209 kun) nisbatan Konservnaya (200 kun) – 10 kun, Non behi (203 kun) – 6 kun, Krimskaya aromatnaya, Micha urojaynaya va Nordon (206 kun) – 3 kun, Zakatolskaya (208 kun) – 1 kun oldin, aksincha, Anjerskaya (210 kun) – 1 kun, Tursh Buxarskaya (221 kun) – 12 kun, Grushavidnaya (222 kun) – 13 kun, Aromatnaya (223 kun) – 14 kun, Izobelnaya va Mushk bexi (225 kun) – 16 kun, Otlichnitsa (228 kun) – 19 kun, Savxoznaya (236 kun) – 27 kunga kechroq vegetatsiya davri tugaganligi aniqlandi.

Kurtak yozilishidan to vegetatsiya davrini tugashigacha bo'lgan davomiylikida Behi navlaridan Zakatolskaya, Nagibrin, Non behi va Nordon navlarida faol foydali harorat – $485,6^{\circ}\text{C}$, Samarkandskaya krupnoplodnaya (st), Anjerskaya, Konservnaya,

Krimskaya aromatnaya va Micha urojaynaya navlarida esa – 504,6°C, Otlichnitsa va Tursh Buxarskaya navlarida – 513,8°C, Aromatnaya, Grushavidnaya, Izobelnaya va Mushk bexi navlarida -517,5°C hamda Savxoznaya navida – 519,9°C ni tashkil qildi.

Dissertatsiyaning **“Behi navlari daraxti va shox-shabballarining biometrik ko‘rsatkichlari”** deb nomlangan paragrafida o‘rganilgan behi nav namunlaridan Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan Tursh Buxarskaya navida daraxt bo‘yi – 84,0 sm (7,8 %), tanasi – 1,9 sm (1,5 %) baland shakllangan bo‘lsa, aksincha daraxt tanasi diametri – 13,4 sm (2,7 %) kichik bo‘lganligi aniqlandi. Boshqa behi navlarda Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan mutanosib ravishda 461,0-394,7; 46,8-24,6 va 19,0-3,6 sm yuqori bo‘ldi.

Shox-shabballarning balandligi hamda qator va qator oralig‘idagi kengligi Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan mutanosib ravishda 430,5-348,3; 154,0-48,0 va 141,3-18,0 sm yuqori bo‘lgan bo‘lsa, Tursh Buxarskaya navida – 9,4; 19,5 va 12,4 % ixcham shox-shabba shakllanganligi aniqlandi.

Shox-shabba proyeksiyasi Samarkandskaya krupnoplodnaya naviga (5,9 m²) nisbatan Tursh Buxarskaya navida 3,4 % (0,2 m²) kengroq, aksincha boshqa navlarda 2,4...8,0 m² yoki 40,7...235,6 % oralig‘ida katta bo‘lgan bo‘lsa, kichik shox-shabba xajmli Samarkandskaya krupnoplodnaya naviga (51,7 m³) nisbatan 6,4 m³ kengroq Tursh Buxarskaya (58,1 m³) navida, boshqa navlarda esa 309,9... 345,8 % juda keng shox-shabba xajmli bo‘lganligi aniqlandi.

Kichik bargi bo‘yi×eni (14,8×9,1 sm) va sathi (135,0 sm²) Tursh Buxarskaya navida, eng siyrak bir tup daraxt va bir geklardagi barg sathi Tursh Buxarskaya (56,9 m² va 5687,3 m²) va Otlichnitsa (76,3 m² va 7327,4 m²), 1 kg mevaga to‘g‘ri keluvchi eng kam barg sathi Tursh Buxarskaya (3,4 m²), Mushk bexi (4,1 m²) va Otlichnitsa (4,1 m²) navlarida shakllandi.

Dissertatsiyaning **“Behi navlari mevalarining sifat va hosildorligi”** deb nomlangan paragrafida O‘zbekistonda rayonlashtirilgan hamda xorijiy seleksiyasiga mansub behi navlari o‘rganilganda standart Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) navining bir dona meva vazni – 264 g bo‘lib, unga nisbatan 320,0 g ga yirik meva vazni Non behi navida (584 g) shakllanganligi aniqlandi.

Shu bilan bir qatorda, standart Samarkandskaya krupnoplodnaya naviga nisbatan 21,0-13,0 g og‘ir meva vazni Xorazm noksimon behisi (285 g), Micha urojaynaya (279 g) va Konservnaya (277 g) navlari namoyon qildi. Aksincha, standart Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan 76,0-122,0 g kichik meva vazni Savxoznaya (188 g), Aromatnaya (172 g) va Anjerskaya (142 g) navlarida shakllanganligi aniqlandi.

Qoraqolpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida o‘rganilgan 6 yoshli behi navlarining bir tup daraxtidan olingan hosil standart Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) navining bir tup daraxtidan – 41,0 kg hosil olingan bo‘lsa, unga nisbatan 8,9-8,8 kg yuqori hosilni Xorazm noksimon behisi (49,9 kg), Non behi (49,8 kg) va Savxoznaya (49,8 kg) navlarida aniqlandi. Shuningdek, bir tup daraxtdan 7,1; 5,8 va 5,2 kg ko‘p hosilni standart Samarkandskaya krupnoplodnaya naviga nisbatan Aromatnaya (48,1 kg), Otlichnitsa (46,8 kg) va Yablokovidnaya (46,2 kg) navlari namoyon qildi. Aksincha, behining standart Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan 11,5-17,3 % kam bir tup daraxtdan hosilni Krimskaya aromatnaya (36,3 kg),

Konservnaya (35,5 kg), Nagibrin (34,8 kg) va Izobelnaya (33,9 kg) navlari namoyon qildi (1-jadval).

1-javdal

Behi navlarining meva vazni, bir tup daraxtdagi hosili hamda hosildorligi (2020-2022 yy.)

Navlar nomi	Meva vazni, g	Bir tup daraxtdagi hosil, kg	Hosildorlik, s/ga				
			2020-yil	2021-yil	2022-yil	o'rtacha	st navga nisbatan, %
Samarkandskaya krupnoplodnaya (st)	264±3,9	41,0	152,4±2,2	206,3±3,0	152,1±2,2	170,3±2,5	100,0
Anjerskaya	142±2,1	38,7	157,5±2,3	156,2±2,3	166,8±2,5	160,2±2,4	94,1
Aromatnaya	172±2,5	48,1	196,5±2,9	203,2±3,0	197,6±2,9	199,1±2,9	116,9
Grushavidnaya	232±3,4	43,0	173,4±2,6	187,6±2,8	177,0±2,6	179,3±2,6	105,3
Zakatolskaya	230±3,8	39,1	160,0±2,4	169,0±2,5	160,8±2,4	163,3±2,4	95,9
Izobelnaya	239±3,5	33,9	138,5±2,0	145,7±2,1	139,9±2,1	141,4±2,1	83,0
Konservnaya	277±4,1	35,5	147,2±2,2	144,2±2,1	153,2±2,3	148,2±2,2	87,0
Krimskaya aromatnaya	206±3,0	36,3	148,3±2,2	156,0±2,3	149,8±2,2	151,4±2,2	88,9
Micha urojaynaya	279±4,1	39,7	142,4±2,1	205,0±3,0	148,2±2,2	165,2±2,4	97,0
Mushk bexi	224±3,7	42,8	175,0±2,6	184,0±2,7	176,8±2,6	178,6±2,6	104,9
Nagibrin	230±4,7	34,8	145,1±3,0	142,2±2,1	148,1±3,0	145,1±2,7	85,2
Non behi	584±11,9	49,8	232,5±4,7	156,0±2,3	233,7±4,8	207,4±3,9	121,8
Nordon	207±4,2	38,5	157,2±3,2	165,3±2,4	158,9±3,2	160,5±2,9	94,2
Otlichnitsa	247±5,0	46,8	193,8±4,0	189,9±2,8	201,8±4,1	195,2±3,6	114,6
Savxoznaya	188±3,8	49,8	207,6±4,2	203,4±3,0	211,8±4,3	207,6±3,8	121,9
Tursh Buxarskaya	221±4,5	42,1	171,9±3,5	181,6±2,7	172,8±3,5	175,4±3,2	103,0
Xorazm noksimon behisi	285±5,8	49,9	203,9±4,2	214,4±3,2	206,0±4,2	208,1±3,8	122,2
Yablokovidnaya	268±5,5	46,2	191,5±3,9	187,6±2,8	199,3±4,1	192,8±3,5	113,2
<i>EKF_{0,5}</i>	10,1	1,4	6,2	4,9	6,3	5,6	-
<i>Sx %</i>	4,0	3,2	3,6	2,8	3,6	3,2	-

Qoraqalpog'iston tuproq-iqlim sharoitiga mos behi navlarini tanlashda maydon birligidan hosildorligi o'rganilganda standart Samarkandskaya krupnoplodnaya navida – 170,3 s/ga bo'lib, unga nisbatan 37,8-37,1 s/ga eng yuqori hosildorlikni Xorazm noksimon behisi (208,1 s/ga), Savxoznaya (207,6 s/ga) va Non behi (207,4 s/ga) navlarida aniqlandi. Shuningdek, standart Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan 16,9-13,2 % ga ko'p hosildorlikni Aromatnaya (199,1 s/ga), Otlichnitsa (195,2 s/ga) va Yablokovidnaya (192,8 s/ga) navlari namoyon qildi.

O'zbekistonning shimoliy hududida behi navlari hosildorligi aniqlanganda Krimskaya aromatnaya (151,4 s/ga), Konservnaya (148,2 s/ga), Nagibrin (145,1 s/ga) va Izobelnaya (141,4 s/ga) navlarida standart Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) naviga nisbatan (mos ravishda): 18,9 (yoki 11,1 %); 22,1 (13,0 %), 25,2 (14,8 %) va


28,9 (17,0 %) s/ga eng kam hosildorlik berganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Behi navlarining iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan paragrafida rayonlashtirilgan behining Samarkandskaya krupnoplodnaya (st) nisbatan (34,6 mln. so‘m) Non behi – 66,1 mln. so‘m, Xorazm noksimon behisi – 55,0 mln. so‘m, Sovxoznaya – 54,9 mln. so‘m, Aromatnaya – 51,6 mln. so‘m, Otlichnitsa – 50,2 mln. so‘m, Yablokovidnaya – 49,3 mln. so‘m, Mushk bexi – 43,9 mln. so‘m, Tursh Buxarskaya – 42,7 mln. so‘m hamda Grushevidnaya – 41,9 mln. so‘m eng yuqori sof daromad olinganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, bir gektardan eng yuqori rentabellik Non behi (228,9 %), Xorazm noksimon behisi (195,2 %), Sovxoznaya (194,6 %), Otlichnitsa (179,8 %) va Yablokovidnaya (176,9 %) navlarida aniqlandi.


Dissertatsiyaning **“Behi ko‘chatlarini yetishtirishda maqbul payvandtag tipi va payvandlash muddatini aniqlash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobidagi **“Behi ko‘chatlarini yetishtirishda maqbul payvantag tiplarni aniqlash”** paragrafida Qaraqalpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida behi ko‘chatlarini tayyorlashda maqbul payvatdag tipini tanlash borasida olib borilgan 2020-2022-yillardagi dala tajribalari asosida behining “Samarkandskaya krupnoplodnaya” navini yovvoyi behi (nazorat)ga payvandtaglanganda 2-chi ko‘chatzorda mart oyida ko‘chat balandligini 25,5 sm bo‘lgan bo‘lsa, o‘suv davrining so‘ngida oktabr oyida 65,6 sm gacha o‘sganligi aniqlandi. 2-chi ko‘chatzorda eng baland ko‘chatlarni Quince C (147,2 sm), Quince A (132,3 sm) va BA-29 (126,9 sm) payvandtaglarda shakllanib, yovvoyi behi (nazorat) ko‘chatlariga nisbatan (mos ravishda) 81,6; 66,7 va 61,3 sm baland bo‘lganligi aniqlandi. Shuningdek, R3 (114,3 sm), Ayva “A” (Anjerskaya) (113,9 sm), S-A (101,7 sm), R1 (97,1 sm), Xerson (91,8 sm) va Alushtinskaya (87,7 sm) payvandtag tiplarida ham yovvoyi behi (nazorat) ko‘chatlariga nisbatan (mos ravishda): 48,7; 48,3; 36,1; 31,5; 26,2 va 22,1 sm baland ko‘chatlar shakllanganligi ma’lum bo‘ldi (1-rasm).

Turli payvandtaglarda behining Samarkandskaya krupnoplodnaya navi ko‘chatlarning diametri nazorat yovvoyi behiga ulangan ko‘chatlarda – 14,0 mm tashkil qilib, unga nisbatan eng katta diametrli ko‘chatlarni, xususan: < 20 mm katta: Quince C (22,3 mm), BA-29 (21,1 mm), R1 (21,1 mm), Quince A (20,9 mm), R3 (20,5 mm) va Xerson (20,1 mm) hamda > 20 mm kichik: S-A (19,9 mm), Alushtinskaya (18,1 mm) va Ayva “A” (Anjerskaya) (17,1 mm) payvandtaglarda shakllanganligi aniqlandi.

Turli payvandtaglarda behining Samarkandskaya krupnoplodnaya navida standart ko‘chatlarni chiqishi o‘rganilganda, maydon birligidagi 71,4 ming dona ko‘chatlardan 2021-yilda nazorat yovvoyi behi payvandtagiga – 38,0 ming dona ko‘chat chiqqan bo‘lsa, unga nisbatan 29,2-27,9 ming donaga ko‘p Quince C (67,2 ming dona), Quince A (66,5 ming dona) va BA-29 (65,9 ming dona) payvandtaglarda tayyorlanganligi aniqlandi. Shuningdek, nazorat yovvoyi behi payvandtagiga nisbatan 24,3-24,2 ming donaga ko‘p ko‘chatlar Alushtinskaya (62,3 ming dona) va R1 (62,2 ming dona) payvandtaglarda hamda 23,7-21,3 ming donaga ko‘p ko‘chatlar R3 (61,7 ming dona), S-A (61,3 ming dona), Xerson (61,0 ming dona) va Ayva “A” (Anjerskaya) (59,3 ming dona) payvandtaglarda shakllanganligi ma’lum bo‘ldi.



2-yoshli ko'chatning bo'yi, sm



2-yoshli ko'chatning diametri, mm

1-rasm. Turli payvandtaglarni behining Samarkandskaya krupnoplodnaya navi ko'chatlarning bo'yi va diametriga ta'siri (2021-2022 yy.)

Shuningdek, 2022-yilda maydon birligidagi 71,4 ming dona ko'chatlardan nazorat yovvoyi behi payvandtagiga – 35,2 ming dona ko'chat chiqqan bo'lsa, unga nisbatan 31,3-29,3 ming donaga ko'p Quince C (66,5 ming dona), Quince A (66,0 ming dona) va BA-29 (64,5 ming dona) payvandtaglarda tayyorlanganligi aniqlandi. Shuningdek, nazorat yovvoyi behi payvandtagiga nisbatan 26,9-26,8 ming donaga ko'p ko'chatlar BA-29 (64,5 ming dona) va Alushtinskaya (62,1 ming dona) payvandtaglarda hamda 26,8-26,4 ming donaga ko'p ko'chatlar R3 (62,0 ming dona), S-A (61,9 ming dona), R1 (61,8 ming dona), Ayva "A" (Anjerskaya) (61,7 ming dona) va Xerson (61,6 ming dona) payvandtaglarda shakllandi (2-jadval).

Turli payvandtaglarda behining "Samarkandskaya krupnoplodnaya" navida standart ko'chatlarni chiqishi 2021-2022-yillar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari aniqlanganda, bir gektar maydondan Quince C (66,9 ming dona), Quince A (66,3 ming dona) va BA-29 (65,2 ming dona) payvandtaglarida nazorat yovvoyi behi (36,6 ming dona) payvandtagiga nisbatan (mos ravishda) 30,3; 29,7 va 28,6 ming donaga ko'p ko'chat chiqishi aniqlandi. Shuningdek, Alushtinskaya (62,2 ming dona), R1 (62,0 ming dona), R3 (61,9 ming dona), S-A (61,6 ming dona), Xerson (61,3 ming dona) va Ayva "A" (Anjerskaya) (60,5 ming dona) payvandtaglarida yetishtirilgan ko'chatlar nazorat yovvoyi behi payvandtagiga nisbatan (mos ravishda) 25,6; 25,4; 25,3; 25,0; 24,7 va 23,9 ming donaga ko'p ko'chatlar shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

2-jadval

Turli payvandtaglarda behining Samarkandskaya krupnoplodnaya navida standart ko‘chatlarni chiqishi (2021-2022 yy.)

Payvandtag tipi	Bir gektar maydondan ko‘chat chiqishi					o‘rta-cha	Nazoratga nisbatan, %
	2021-yil		2022-yil				
	ming dona	nazoratga nisbatan, %	ming dona	nazoratga nisbatan, %			
Yovvoyi behi (nazorat)	38,0	100,0	35,2	100,0	36,6	100,0	
Ayva “A” (Anjerskaya)	59,3	156,1	61,7	175,3	60,5	165,3	
BA-29	65,9	173,4	64,5	183,2	65,2	178,1	
Quince C	67,2	176,8	66,5	188,9	66,9	182,7	
Quince A	66,5	175,0	66,0	187,5	66,3	181,0	
Alushtinskaya	62,3	163,9	62,1	176,4	62,2	169,9	
R3	61,7	162,4	62,0	176,1	61,9	169,0	
Xerson	61,0	160,5	61,6	175,0	61,3	167,5	
S-A	61,3	161,3	61,9	175,9	61,6	168,3	
R1	62,2	163,7	61,8	175,6	62,0	169,4	
EKF ₀₅	2,6	-	2,3	-	2,2	-	
Sx%	4,3	-	3,8	-	3,6	-	

